



**Tadqiqot UZ**

**ЎЗБЕКИСТОН  
ОЛИМЛАРИ ВА  
ЁШЛАРИНИНГ  
ИННОВАЦИОН  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАРИ  
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**2021**

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**28 FEVRAL  
№25**

**CONFERENCES.UZ**

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 25-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
12 - ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
25-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ  
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ- 12**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN  
25-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE  
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART- 12**

**ТОШКЕНТ-2021**



**УУК 001 (062)**  
**КБК 72я43**

## **"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]**

**"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар"** мавзусидаги республика 25-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 28 февраль 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 12 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

### **1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

### **2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

### **3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

### **4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

### **5. Давлат бошқаруви**

PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

### **6. Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

### **7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



### **8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

### **9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

### **10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

### **11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

### **12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

### **13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

### **14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

### **15.Муסיқа ва ҳаёт**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

### **16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

### **17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

### **18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

### **19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

### **20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

### **21.Кимё фанлари ютуқлари**

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



## **22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

## **23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

## **24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

## **25. География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**МАДАНИЯТ ВА САЊАТ СОҶАЛАРИНИ  
РИВОЖЛАНТИРИШ**

**1. Hamroyeva Oynisa Farkhodovna**

OLIJ TA'LIM MUASSASASI TALABALARIDA AXLOQIY ESTETIK MADANIYATNI  
TAKOMILLASHTIRISHDA ABDULLA AVLONIYNING "TURKIY GULISTON YOXUD  
AXLOQ" ASARIDA YOSH AVLODNI TARBIYALASHNING MA'NAVIY-AXLOQIY  
JIHATLARI..... 7

**2. Yakubova Nafis aOdiljanovna, Mirahmedova Sarvinoz Xasanovna**

O'QUVCHILARGA GRAFIK VA DIAGRAMMA USULLARINI O'RGATISH. .... 10



## МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ СОҲАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

### OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARIDA AXLOQIY ESTETIK MADANIYATNI TAKOMILLASHTIRISHDA ABDULLA AVLONIYNING "TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ" ASARIDA YOSH AVLODNI TARBİYALASHNING MA'NAVIY- AXLOQIY JIHATLARI

**Hamroyeva Oynisa Farkhodovna, URDU**  
"Pedagogika tarixi va nazariyasi" 191chi guruh 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida yosh avlodni tarbiyalashning ma'naviy –axloqiy jihatlari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** "Guliston", axloq, ta'lim tarbiya, ma'rifat, maktab, maorif, darslik, qo'llanma, milliy uyg'onish, yaxshi xulq, yomon xulq

XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlarida Turkiston (Markaziy Osiyo) o'lkasida pedagogik fikrlarning rivojlanishida, xalq maorifi ishlarini yuksaltirishda ilg'or ziyolilarning xizmatlari kattadir. Bunda jadid adabiyotining yirik vakili shoir, dramaturg, muallim Abdulla Avloniy (1878–1934)ning xizmatlari ko'p. U maktablar ochib, shaxsan o'zi muallimlik qilish bilan birga maktablarni darsliklar bilan ta'minlash ishiga katta hissa qo'shdi. Uning qalamiga mansub "Turkiy Guliston yoxud axloq", "Birinchii muallim", "Ikkinchi muallim" "Maktab Gulistoni" "asarlari bir necha bor nashr etildi. Bular ichida "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari o'zbek klassik pedagogikasining ajoyib namunasi hisoblanadi. Abdulla Avloniy mazkur asarni fors klassik shoiri shayx Muslihiddin Sa'diy (1184–1310)ning "Guliston" asaridan ta'sirlanib, unga taqlid qilib yozganligi haqida shunday deydi: "Ban bu asari nochizonami bir necha muallim birodarlarimning iltijolari ila yozmoq va nashr qilmoqqa g'ayrat va jasorat qilmish edim. Alhamdu lilloh val minna ikkinchi tab'ihada muvaffaq o'ldum, chunki Turkiston maktablarida o'z shevamizda (o'zbek tilida demoqchi) yozilmish mukammal "Axloq kitobining shunday asarga tashna va muhtoj ekanlig'i o'zum muallimlar jumlasidan o'ldig'imdan manga ham ochiq ma'lum o'ldi. Shuning uchun ko'p vaqtlar tajriba so'ngidan adibi muhtaram shayx Sa'diy usulida yozmoqni, garchi og'ir ish bol'sa ham, o'zimga muqaddas bir vazifa ado qilaroq bu kamchilikni oradan ko'tarmakni munosib ko'rdim"<sup>1</sup> Demak, aytish mumkinki, "Turkiy Guliston yoxud axloq" Sa'diyning "Guliston" asari usulida o'zbek tilida yozilgan axloq kitobidir. Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarini o'z davrining maktablari, yoshlari, xususan, yuqori sinf o'quvchilari uchun qo'llanma tarzida yaratdi.

Asarning tub mohiyatini yoshlarni ma'rifatga chorlash, sharqona, ko'p milliy an'analarimiz ruhida tarbiya ishining yo'l-yo'riqlarini talqin etish, ayni vaqtda, ta'lim-tarbiya sohasida yangi asrning ilg'or talabalarini qo'yish, axloq muammolarining shaxs kamoloti va jamiyat ravnaqidagi o'rnini yoritish tashkil etadi. Darhaqiqat, Abdulla Avloniyning mazkur asari 1913-yilda Toshkentda Ilin bosmaxonasida litografik (toshbosma) usulida nashr etildi. Asar bunday darslikka bo'lgan ehtiyojni hisobga olib 1917- yilda ikkinchi marta chop qilindi. Har ikki nashr ham hajm jihatidan bir-biridan farq qilmaydi. Faqat birinchisi kotib Abdusalom Abdurahmon o'g'li, ikkinchisi kotib Abdul Mannon ibni Abdul Majid (o'zbek milliy teatrining mashhur aktyori Mannon Uyg'ur Majidov) dastxatidir.

"Turkiy Guliston yoxud axloq"ning uchinchi nashrini 1967- yili "O'qituvchi" nashriyoti amalga oshirdi. Bunda asarda uchragan diniy iboralar, Hadisdan olingan hikmatlar davr talabiga ko'ra tushirib qoldirildi. Asarni "O'qituvchi" nashriyoti 1992- yil asli nusxa yozuvida (arab yozuvi asosidagi o'zbek yozuvida) va rus alifbosi asosidagi o'zbek yozuviga o'girilgan matni

<sup>1</sup> "Turkiy guliston yoxud axloq". . A. Avloniy, " O'qituvchi", Toshkent, 1992y.



bilan birga, shuningdek, qiyin soʻzlar lugʻati ilova qilingan holda bosib chiqardi.

“Turkiy Guliston yoxud axloq”ning beshinchi nashri sobiq nashrlar ichida eng mukammalidir. Bunda kotib Mannon Uygʻur dastxati matnining faksimeli, lotin yozuvi asosidagi yangi oʻzbek yozuviga oʻgirilgan matni, qiyin soʻzlar lugʻati berilgan.

Hozirgi kunda inson tarbiyasida pedagogik asarlarning oʻrni benihoya kattadir. Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari ham shunday asarlar sirasiga kiradi. Unda inson tarbiyasida muhim rol oʻynovchi muhim masalalar yoritilgan. Ushbu masalalar faqat hozir emas, balki barcha davrlarda ham dolzarb boʻlib kelgan.

Asarning tub mohiyatini yoshlarni maʼrifatga chorlash, sharqona, koʻp milliy anʼanalarimiz ruhida tarbiya ishining yoʻl-yoʻriqlarini talqin etish, ayni vaqtda, taʼlim-tarbiya sohasida yangi asrning ilgʻor talabalarini qoʻyish, axloq muammolarining shaxs kamoloti va jamiyat ravnaqidagi oʻrnini yoritish tashkil etadi.

Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq”da yaxshi va yomon xulq, ruh, fikr, axloq, oʻy va maktab tarbiyalari haqida mulohaza yuritar ekan, ularning har biridagi oʻziga xos tomonlarni ochib berishga harakat qildi. Uning oʻqish, oʻqitish, tarbiya ishlarida davr talabi asosida islohotni amalga oshirish nihoyatda zarur degan fikrni oʻz zamon uchun ham, bugungi kun uchun ham qimmatlidir. “Alhosi, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir” deb yozadi Avloniy. Shunisi alohida diqqatga sazovorki, “Turkiy Guliston yoxud axloq” da tarbiyaviy ishlar bugun deyarli unutilib borayotgan diyonat, saʼy va gʻayrat, riyozat, shijoat, qanoat, sabr, hilm, nafs, vijdon, iffat, havo, viqor, hivzi lison, munislik, xayrixohlik, oliyhimmatlik kabi yuksak axloqiy tushunchlar (ilmni egallash va vatanparvarlik gʻoyasi bilan chambarchas aloqada); zulm, nifoq, taʼma, hasad,

loqaydlik, gʻiybat, haqorat, uyatsizlik, namimat (chaqimchilik), adovat, xasislik, vijdonsizlik, johillik, gʻazab, xiyonat singari shaxs tabiatidagi yomon xulqlar (millat va vatan saodatiga eʼtiborsizlik va bepisandlik bilan bogʻlangan holda) muhim ijtimoiy muammo sifatida talqin etiladi. Ularning inson hayoti va taqdiridagi oʻrni va rolini muallif loʻnda, aniq va muxtasar ravishda talqin qiladi. Bu axloq luzumlarini chuqur oʻzlashtirish bugungi yoshlar uchun ham, shubhasiz, muhim ahamiyatga kasb etadi.

Asar quruq pand-nasihatlardangina tashkil topgan emas. Undagi qator fikr, gʻoyalarda XX asr boshlaridagi Turkiston xalqlaridagi milliy uygʻonish ruhi aks ettirilgan. Xususan, millat kelajagi haqidagi qaygʻurish, vatan istiqboli haqida oʻylash, el va yurtga sodiq, vatanparvar yoshlarni tarbiyalashga birinchi darajali eʼtibor berish kerakligi “Turkiy Guliston yoxud axloq”ning gʻoyaviy-badiiy mazmunida alohida oʻrin tutadi.

“Men xastayamu millatim oʻlmish nega bemor?!”<sup>3</sup>, deydi Avloniy kitobning boshlanishida va xasta dilni, bemor millatni davolashning asosiy yoʻli nimadan iborat? – degan savolga butun asar davomida javob berishga intiladi. Asardagi barcha naql-hikoyatlar gʻoyasidan kelib chiqadigan badiiy mantiq shuki, insonni barkamol etish va millatning ravnaq toptirishning asosiy yoʻli – har bir shaxsning yuksak axloqli va maʼnaviy goʻzal, ilmi va maʼrifatli boʻlishiga erishishdan hamda butun kuch-quvvat, aql-zakovat, bilim-u idrok, aqcha-yu iqtisod – barchasini vatan ravnaqi va xalq saodatiga yoʻnaltirishdan iboratdir.

Asarda XX asr boshlaridagi milliy uygʻonish ruhi, ayniqsa, vatanga, millatga sodiq farzandlar tayyorlash zarurligi oʻtkir qoʻyilgan. “Amerikaliklar bir dona bugʻdoy ekub, yigirma qadoq bugʻdoy olurlar. Ovrupalilar oʻzimizdan olgan besh tiyinli paxtamizni keturib, oʻzimizga yigirma besh tiyinga soturlar! Ammo bizlar osiyolilar, xususan, turkistonlilar dumba sotub, chandir chaynaymiz. Qaymoq berib, sut oshiyimiz, non oʻrniga kesak tishlaymiz!”<sup>2</sup> degan fikrlar ulugʻ adib Abdulla Avloniy asr boshidayoq bu masala xususida nechogʻlik chuqur va teran mushohada yuritganini koʻrsatib turibdi.

Bu – oʻzligimizni anglash uchun, oʻz qadrimizga yetish, istiqlolni kiritish uchun aytilgan dadil va jasur fikrlar edi. Biz haqiqiy mustaqillikni qoʻlga kiritgandan keyingina oʻshanday kamchiliklarni bartaraf etish, oʻshal orzu, oʻshal daʼvatni amalga oshirish imkoniyatiga ega boʻldik.

## 2. Oʻsha manba

Hozir alohida iftixor bilan takrorlayotganimiz – muqaddas hadisda aytilgan “Xubbul vatan-minal iymon” – “Vatanni sevmoq iymondandir” degan fikrga ham Abdulla Avloniy oʻzining “Turkiy Guliston yoxud axloq”ida alohida oʻrin ajratgan. Yoxud yana bir misol. “Hifzi lison deb har bir millat oʻz ona tili va adabiyotining saqlamagani aytilur, - deydi Abdulla Avloniy



shu asarida. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur. Tilimizning yarmiga arabiy, forsiy ulangani kamlik qilub, bir chetiga rus tili ham yopishdurmakdadurmiz. Durust, bizlarga hukukatimiz bo'lg'on rus lisonin bilmak hayot va saodatimiz uchun osh va non kabi keraklik narsadur. Lekin o'z erkimizga ishlatmak va so'zlamak lozimdur".

Avloniyning asr boshidagi bu xasratli nidosi buyuk bobolarimiz arvoqlarining ruhi yanglig' turkistonliklar boshi uzra deyarli sakson yil davomida charx urib yurdi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tishimiz mumkinki, axloqiy-falsafiy mazmunga ega bo'lgan "Turkiy Guliston yoxud axloq" badiiy teran va go'zal asar hisoblanib, undagi "Axloq", "Tarbiya", "Yaxshi xulqlar", "Yomon xulqlar" deb nomlangan kimsalarga bo'linishi va ularning ularning ichida har bir axloqiy tushunchani yuritishga alohida parcha ajratilishi, mo'jaz naql, ixcham hikoyatlar bilan bezatilishi pedagogik mazmun doirasida badiiy va tarixiy obrazlar vositasida yanada mustahkamlaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston, yoxud axloq. T., 2008.
2. Mustaqillik davri adabiyoti. Toshkent., 2004.
3. Begali Qosimov va boshqalar. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Toshkent "Ma'naviyat" 2004.
4. Mirzayev S. O'zbek adiblari. "Fan". 2002.
5. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. T., 2008.



## О'QUVCHILARGA GRAFIK VA DIAGRAMMA USULLARINI O'RGATISH.

**Yakubova Nafisa Odiljanovna**

Guliston davlat universiteti o'qituvchisi  
+998975692991nafisaodiljonovna@gmail.com

**Mirahmedova Sarvinoz Xasanovna**

+998993026112

**Annotatsiya:** O'quvchilar grafik va diagrammalar bilan matematika, fizika, iqtisodiy bilim asoslari, mehnat ta'limi darslarida va shuningdek gazeta hamda jurnallarni mutolla qilish jarayonlarida tanishganlar. Shuning uchun biz grafik va diagrammalarni o'qish va bajarishni bilishning foydasi va zaruriyati haqida batafsil to'htalib o'tganmiz. Quyida grafik va diagrammalarning turlari va ularni bajarish

**Kalit so'zi:** grafik va diagrammalar, chiziqli, ustunli va sektorli grafik va diagrammalar, qobiliyat, tasavvur qilish, fazoviy tasavvurlarini shakllantrish, idrok, modellashtirish, fa'oliyat.

Hozirgi zamon talabi chizmachilik o'qitish metodikasi bo'yicha rivojlanib borayotgan dars jarayonini va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llashning umumdidaktik va metodik asoslarini o'rganishga keng o'rin ajratilgan. Shunday muhim jixatlarni inobatga olgan holda grafik va diagrammalarni o'rganishda o'quvchilarga borliqni haqqoniy, mukammal o'zlashtirish yosh muhandislarni tayorlashdagi dastlabki qadam hisoblanadi. O'quvchilarni bo'lajak pedagoglarda borliqni his etish va uni o'z ish jarayonida jonli tasvirlay olish va qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Chizma malakasini mukamal egallash va uni amaliyotda qo'llash naturaga, shuningdek xotira va tasavvurga asoslanib, grafik diagramma asoslari bilan tanishtirish o'quv rejalarida tegishli o'rinni egallaydi. Grafik va diagrammalar fan, texnika, tibbiyot, ma'orif va turmushda keng qo'llaniladi. Fanda ular yordamida har xil murakkab jarayonlarining kechishi va qonuniyatlari o'rganiladi. Amaldagi o'quv dasturiga asosan umum ta'lim maktablari chizmachilik kursida grafik va diagrammalarni o'rganish ko'zda tutilmagan. Lekin dizayn yo'nalishlardagi ixtisosliklari kasb – hunar kollej talabalari zamonaviy shakldagi, kishilarni o'ziga jalb qiladigan ko'rinishli grafik va diagrammalarni bajarishni bilishlari kerak. Grafik va diagrammalar amaliy grafika tarkibiga kiradi, chunki ular ko'pincha ko'rsatishlarini namoyish qilish, iqtisodiyot, moliya, sanoat, qishloq xo'jaligi, ijtimoiy, maorif, tibbiyot kabi sohalardan hodisa va jarayonlarni o'rganish kerak. Quyida grafik va diagrammalarning turlari va ularni bajarish metodikalari haqida ma'lumot berishga harakat qilamiz.

Grafik va diagrammalar shakliga ko'ra chiziqli, ustunli va sektorli (shu jumladan hajmli va uch o'lchamli) ko'rinishida bajarilishi mumkin. O'quvchilarning kundalik turmushlari bilan bog'liq va o'zini qiziqadigan fanidan, sohasidan misol va topshiriqlar tanlasa, ular ushbu mavzuni qiziqish bilan o'rganadilar.

O'quvchilarning grafik va diagrammalar bajarishga o'rgatishda dastavval ularning shu sohadagi bilimlarini chuqurlashtirish, grafik va diagrammalar turlari hamda turli texnikada bajarilgan shakllari haqida tasavvurlarini kengaytirish kerak. Buning uchun o'quvchilarga ushbu mavzu bo'yicha birinchi topshiriq sifatida maktab darsliklardagi grafik va diagrammalardan namunalarni ko'chirib chizishni topshirish mumkin. Buning uchun ularga ushbu mavzu bo'yicha birinchi topshiriq ko'zlangan format chizma qog'ozi varag'iga gazeta va jurnallardan grafik va diagrammalarni qirqib olib, elimlashni va maktab darsliklarda ko'rsatilgan diagrammalardan namunalarni ko'cherish mumkin. Keyingi darsda vazifani tekshirish va ular ichidagi to'g'ri bo'lgan yechim topilgan variantlarni o'qituvchi sinfdagi o'quvchilar bilan birgalikda tahlil qilish tavsiya etiladi.

Bu metodik usul yordamida o'quvchilarga bo'lgan grafik va diagrammalar ularning ishlatilishi va zaruriyat to'g'risida tasavvurlari kengayadi. Bu grafik usullar natijasida o'quvchilar o'ziga bo'lgan qiziqishni yanada orttiradi va o'zi qiziqgan mavzuni mustaqil tanlashga, keyingi bajariladigan individual grafik topshiriqni yuqori saviyada bajarishga harakat qilishadi. O'quvchi egallashi zarur bo'lgan ilmiy bilimlar, g'oyalar va ular bilan bog'liq bo'lgan amaliy ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi. Chizmachilikda qisman izlanuvchanlik va tadqiqot metodiga modellashtirish, loyihalash bo'yicha masalalar yechish, grafik ishlarni bajarish kabilarni ko'rsatishimiz mumkin. Ta'limni faollashtirishimiz kerak. Qo'llanilmagan pedagogik zaxiralarni



qidirish va amaliyotga kiritish nazarda tutiladi. Zamonaviy sharoitlarda o`quvchilarni o`qitish va tarbiyalashga qo`yilayotgan talablarning ortib borishi, maktab ta`lim tizimidagi islohotlar ta`lim jarayonini faollashtirishni talab qilmoqda. Chizmachilik o`qitishda sektorli diagrammalarni faollashtirish sifatida ko`rsatishimiz mumkin.

- Darsning oqilona tashkil qilinishi
- Grafik faoliyat vositalari yordamida o`quvchilarning bilim olishga qiziqtirishlarini rivojlantirish

- Darsning mavzuga oid reja asosida o`tish.

Grafik va diagrammalar axborot tuzatishning bir shakli bo`lib, ular o`zining ixchamliligini, mazmunliligini, universalligini va tushunarligi bilan ajralib turadi. Ulardan insonlar kundalik turmushida va kasbiy faoliyatlarida foydalanadilar. Ushbu metodik usul yordamida o`quvchilarning grafik va diagrammalar ularning ishlatilish sohalari, shuningdek ularga bo`lgan zaruriyat to`g`risidagi tasavvurlari kengayadi. Buning natijasida o`quvchilar o`zlari uchun qiziqarli bo`lgan mavzuni mustaqil tanlashga, keng bajariladigan individual grafik topshiriqni yuqori saviyada bajarishga harakat qilishadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, muhandislikda ko`nikma dasturini bilim ko`nikmalariga qo`yiladigan asosiy talablari va yorqin ifodalash bilan uzviy bog`liqligi e`tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Umronxo`jayev.Maktabdachizmachiliko`qitishnitakomillashtirish. T.:1993y.
2. www.ZiyoNET.uz.O`zbekistonRespublikasiOliyvao`rtamaxsusta`limvazirligi"Axborotta`limtarmog`i".
3. Umumiy o`rtata`limmaktablaridachizmachilikta`limikonsepsiyasi.T.:Sharq. 1995y.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 25-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(12-қисм)**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 28.02.2021

**Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

---